

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA ENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERISH BO'YICHA
DSc. 03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

MUXAMEDOVA ZUHRAKON KAZIMOVNA

**KON-METALLURGIYA KOMBINATI ISHCHILARINING MAXSUS
KIYIMLARINI HIMOYA XUSUSIYATLARINI OSHIRISH**

05.06.04 – Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
технических наук**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on technical
sciences**

Muxamedova Zuhraxon Kazimovna

Kon-metallurgiya kombinati ishchilarining maxsus kiyimlarini himoya
xususiyatlarini oshirish..... 5

Мухамедова Зухрагон Казимовна

Повышение защитных свойств специальной одежды для работников
горно-металлургического комбината..... 22

Mukhamedova Zuhrahon Kazimovna

Improving the Protective Performance of Special Garments for Mining
and Metallurgical Plant Workers 42

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 45

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA ENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERISH BO'YICHA
DSc. 03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

MUXAMEDOVA ZUHRAXON KAZIMOVNA

**KON-METALLURGIYA KOMBINATI ISHCHILARINING MAXSUS
KIYIMLARINI HIMOYA XUSUSIYATLARINI OSHIRISH**

05.06.04 – Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi va kostyum dizayni

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T5130 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanota institute huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ttyesi.uz) hamda "Ziyo Net" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kasimova Aziza Baxodirovna
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Nigmatova Fotima Usmanovna
texnika fanlari doktori, professor

Nabidjanova Nargiza Nasimjanova
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengashining 2025 yil 26 avgust soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjahon-5. Tel: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 222-xona).

Dissertatsiya ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanota institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (245-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Shohjaxon-5. Tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 7 avgust kuni tarqatildi.
(2025 yil 7 avgust 245 - raqamli reestr bayonnomasi).



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Kon-metallurgiya sohasi O‘zbekiston iqtisodiyotining fundamental asosiy tarmoqlaridan biri bo‘lib, u tez rivojlanib bormoqda. 2024-yilda ushbu sohaning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi qariyb 6 foizni tashkil etdi, bu sohaga 1,5 milliard AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritildi. Jumladan, Navoiy kon-metallurgiya kombinatini (NKMK) 2026-yilgacha rivojlantirish dasturi doirasida umumiy qiymati 3 milliard AQSh dollaridan ziyod bo‘lgan qariyb 30 ga yaqin yirik loyiha amalga oshirilishi belgilangan. Ushbu loyihalar mamlakatimizda iqtisodiy o‘shni ta‘minlash, yangi ish o‘rinlari yaratish, mahalliy va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalardan foydalanish orqali metallurgiya sohasini modernizatsiya qilishga katta hissa qo‘shadi.

Metallurgiya korxonalarida insonning xavfsiz mehnat sharoitlarini ta‘minlash har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati sohasidagi eng muhim vazifalardan biridir. Shu bois, ishchilar uchun maxsus himoya kiyimlarini ishlab chiqish - ularning sog‘lig‘i va mehnat qobiliyatini saqlashda dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Jahon amaliyotida to‘qimachilik sanoatida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash asosida maxsus vazifali sifatli to‘qima va trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan kompleks ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, jumladan, tabiiy va kimyoviy tolali aralash matolar assortimentini kengaytirish va ulardan kiyishga qulay va chidamli, himoya vazifalari kuchaytirilgan yuqori samarali maxsus kiyimlarini loyihalash va ishlab chiqarishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda.

Respublikamizda to‘qimachilik mahsulotlari assortimentini tayyorlash va kengaytirish, bunda mahalliy xomashyodan samarali foydalanish hamda ishlab chiqarish korxonalarining eksport salohiyatini oshirish mamlakatimiz iqtisodiy sharoitini yuksaltirishning asosiy omillaridan biri bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–60-sonli Farmoniga muvofiq, 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 76-bandida “...kon-metallurgiya sanoatida ekologik talablar va atrof-muhit muhofazasi me‘yorlarini xalqaro standartlar asosida ta‘minlash...”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 25 iyundagi PQ–5159-sonli “Kon-metallurgiya sanoati va unga bog‘liq sohalarni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, ishchilarni maxsus kiyim va shaxsiy himoya vositalari bilan ta‘minlash...” vazifalari belgilangan. Ushbu qaror va dastur doirasida maxsus kiyim va shaxsiy himoya vositalarini ishlab chiqarish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda ishchilarning mehnat xavfsizligini ta‘minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-yanvardagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 2024-yil 1-fevral kuni Navoiy va Olmaliqda “O‘zmetkombinat” hamda “Navoiyuran” kon-metallurgiya

kombinatlarini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilish qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurs tejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoni o'rganganlik darajasi. Mazkur soha bo'yicha qator olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Maxsus kiyimni ergonomik mezonlar asosida ishlab chiqish va uning sifat ko'rsatkichlarini baholash masalalari xorijda S. Optner (AQSh), J. Jons (AQSh), X. Marikava (Yaponiya) kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Turli maqsadlarga mo'ljallangan kiyimlarni loyihalash bo'yicha tizimli yondashuvning metodologik asoslarini shakllantirish hamda "inson-kiyim-atrof-muhit" tizimidagi tadqiqotlar E.B.Koblyakova, prof. V.E.Romanov, Z.S.Chubarova, P.P.Koketkin, E.Ya.Surjenko, R.O.Jilisbaeva, S.L.Tarassenko, B.R.Riskulova kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Respublikamizda maxsus kiyimlarni loyihalash va material xususiyatlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar X.X.Kamilova, S.Sh.Tashpulatov, F.U.Nigmatova, S.U.Pulatova va boshqalar tomonidan o'tkazilgan.

Ushbu tadqiqotlarda kon-metallurgiya korxonalaridagi xavfli va zararli omillarning maxsus kiyimga ta'siri, uning yaroqlilik muddati hamda metallurglarning xavfsizligini ta'minlashga bag'ishlangan ilmiy asoslangan izlanishlar yetarli darajada olib borilmagan. Bu esa, o'z navbatida, zamonaviy talablar darajasiga javob beradigan maxsus kiyimlarni ishlab chiqish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu tadqiqot ishi Toshkent to'qimachilik va engil sanoat instituti hamda "Art Print and Textile" MChJ o'rtasida tuzilgan 32/2022-sonli shartnoma doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi - kon-metallurgiya kombinat ishchilari mehnat sharoitining xavfli va zararli ta'sirlaridan samarali himoyalovchi va uning ishonchliligini ta'minlovchi maxsus kiyimni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kon-metallurgiya kombinati mehnat sharoitini, ishchilar sog'lig'iga ta'sir etuvchi xavfli va zararli omillarni o'rganish va tasniflash;

suyuq metall zarrachalarining sachrashi natijasida maxsus kiyimning shikastlanish topografiyasini tahlil qilish va o'rganish;

metallurglar maxsus kiyimi materiallari paketini tadqiq etish, ekspluatatsion va himoya (olovbardosh) xususiyatlarini aniqlash;

maxsus kiyimning funksional ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun suyuq metall zarrachalarning kiyim uchastkalari bo'ylab harakatini analitik hisoblash;

maxsus kiyimga qo'yiladigan ekspluatatsion talablarni o'rganib, uning yangi konstruktiv-texnologik yechimini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida kon-metallurgiya kombinat (KMK) ishchilarining ish ob'ektlari, maxsus kiyim materiallari, ekspluatatsion va himoya ko'rsatkichlari olingan.

Tadqiqotning predmeti - kiyim loyihalash jarayoni, "inson-kiyim-atrof-muhit" tizimining funksional sharoitlariga mos keladigan maxsus kiyim va himoya vositalari.

Tadqiqotning usullari. Nazariy tadqiqot ishlarida tizimli yondashuv metodologiyasi, oliy matematika, nazariy mexanika, matolarning fizik-mexanik xususiyatlarini aniqlashning standart usullari, matematik statistika va modellashtirish, videokuzatuv va videotasvir usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kon-metallurgiya kombinatining mehnat sharoiti hamda xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarini o'rganish asosida quyish tsexi ishchilari uchun maxsus kiyimga qo'yiladigan talablar tizimlashtirilgan;

maxsus kiyimni himoya ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun qaynoq suyuq metall zarrachalarning maxsus kiyim uchastkalari bo'ylab harakatini ifodalovchi analitik bog'lanish taklif etilgan bo'lib, unga ko'ra zarrachaning harorati va kiyim sirtida ushlanib qolish ehtimoli charm matosi sirtida kamayishi nazariy isbotlangan.;

metallurglar maxsus kiyimi ekspluatatsion va himoya (olovbardosh) xususiyatlarini oshirish imkonini beruvchi materiallar paketi taklif etilgan;

metallurglarning harakat dinamikasini (ergonomik moslikni) o'rganish asosida himoya kostyumining ratsional konstruktiv-texnologik yechimlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kon metallurgiya kombinati ishchilarining talablarini inobatga olib, mehnat sharoitiga mos ergonomik hamda ekspluatatsion jihatdan chidamli va qulay bo'lgan maxsus kiyim komplekti taklif etilgan;

maxsus kiyimga qo'yiladigan talablarning himoyaviy samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tavsiya etilayotgan maxsus kiyimning konstruktorlik va texnologik hujjatlari ishlab chiqilgan;

kombinat ishchilari uchun maxsus kiyim namunalari tikuv korxonalarida joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya ishida nazariy va tajribaviy tadqiqotlar natijalari, approbatsiya qilingan tadqiqotlarning ijobiy xulosalari, mavzu bo'yicha ma'lumotlarning qiyosiy tahlili hamda nazariy tadqiqotlar natijalari bilan tajribaviy tadqiqotlar natijalarini taqqoslash asosida yondashilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kon-metallurgiya kombinat ishchilari uchun mo'ljallangan maxsus kiyimlarni loyihalash jarayonida ergonomik va ekspluatatsion xususiyatlarni inobatga olgan holda, kiyimning qulayligiga ta'sir etuvchi xavfli va zararli omillar tizimlashtirildi. Bu yondashuv maxsus kiyimning

himoyaviy samaradorligini oshirish hamda mehnat xavfsizligi va ishchi sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan yangi metodologik asoslarni shakllantirishga imkon beradi.

Dissertatsiya ishining amaliy ahamiyati tadqiqot natijalari asosida kon-metallurgiya kombinat ishchilari mehnat sharoitlari hamda dinamik harakatning maksimal egilish darajasini aniqlashda namoyon bo‘ladi. Ushbu natijalar maxsus kiyimni loyihalashda uning ergonomik xususiyatlarini yaxshilash hamda ratsional konstruksiyasini ishlab chiqish uchun dastlabki ma’lumot sifatida qo‘llash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kon-metallurgiya kombinat ishchilari uchun maxsus kiyimlarning himoya vazifasini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqot natijalari asosida:

O‘zbekiston Respublikasining “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, “Konchilik va metallurgiya zavodi ishchilari uchun maxsus kiyim to‘plami” SAP 2022 0042-sonli patent olindi;

2022 yil sentyabr–yanvar oylarida “Art Print and Textile” MChJ korxonasi bilan №32/2022-sonli shartnoma tuzildi;

KMK ishchilari uchun taklif etilayotgan maxsus kiyimning yangi komplekti uchun konstruktiv o‘zgartirilgan hujjatlar paketi ishlab chiqildi va respublikamizdagi tikuvchilik korxonalarida, jumladan, “Art Print and Textile” MChJ, “NUR-TEX” MChJ hamda yakka tadbirkor D.V.Xudoyberdiyev korxonalarida joriy qilindi. Natijada kon-metallurgiya kombinat ishchilari uchun qulay va iqtisodiy jihatdan maqbul maxsus kiyim hamda ikkilamchi charm (spilok)dan tayyorlangan maxsus old kiyim ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 16 ta ilmiy ish chop etilgan, ulardan 1 ta Scopus ma’lumotlar bazasiga kiritilgan xalqaro ilmiy nashrda, OAK tavsiya etgan jurnallarda 5 ta maqolalar chop etilgan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi sanoat namunasiga 1 ta patent (№SAP 2022 0042) olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot ishi kirish, 4 ta bob, umumiy xulosalar, foydalangan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya matni 119 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, maqsad va vazifalari, shuningdek tadqiqot ob‘yekti va predmeti shakllantirilgan, tadqiqotning respublika fan va texnologiya taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalar ishonchliligi asoslab berilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining

amaliyotga joriy etilgan tatbiqlari ro'yxati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kon-metallurgiya kombinati ishchilari maxsus kiyimining himoya xususiyatlarini oshirish”** deb nomlangan birinchi bobida O'zbekiston kon-metallurgiya sanoati holati tahlili va ishchilarni maxsus kiyim assortimenti bilan ta'minlash, maxsus kiyimga va materiallariga qo'yiladigan talablar, shaxsiy himoya vositalarini loyihalashning zamonaviy amaliyoti tahlili masalalari ko'rib chiqilgan bo'lib, maxsus kiyimning issiqlikdan, yong'indan, agressiv muhitdan himoyalash, mexanik yuklamalarga bardoshlik, qulaylik kabi xususiyatlarini tadqiq etish muhimligi aniqlangan. O'zbekistonda kon-metallurgiya sohasining rivojlanishi va iqtisodiyotning eksport salohiyatiga ta'siri kuchayishi negizida ishchilar bandligi ortishi va yangi ish o'rinlarining paydo bo'lishi kuzatilmoqda. Shu sababli metallurgiya korxonalarini ishchilarini maxsus himoya kiyimlari bilan ta'minlash masalasi dolzarb va mehnat unumdorligini sezilarli darajada belgilovchi omil hisoblanadi.


Dissertatsiya tadqiqoti doirasida kon-metallurgiya kombinati quyish tsexi ishchilarning xavfsizligini ta'minlashga oid me'yoriy-texnik hujjatlar va maxsus kiyim materiallarga qo'yiladigan talablar maxsus kiyimni takomillashtirish masalasi kesimida tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Kon-metallurgiya kombinati quyish tsexi sharoitida “inson-maxsus kiyim-ishlab chiqarish” tizimi elementlarining o'zaro ta'sirini tadqiq etish”** nomli ikkinchi bobi Navoiy kon-metallurgiya kombinati quyish tsexida mehnat sharoiti, xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarining tadqiqi va tavsifi, maxsus kiyimning ekspluatatsion ko'rsatkichlari va yemirilish topografiyasining tadqiqiga, maxsus kiyim materiallari xossalari shakllantirishga bag'ishlangan.

Kon-metallurgiya kombinati quyish tsexi mehnat sharoiti jihatidan murakkab va xavfli hisoblanadi. Eng ko'p avariya domen, kislorodli-konverter va metall quyish ishlab chiqarishida sodir bo'ladi. Metall eritish va quyish tsexlarida qayta ishlash jarayoni metall turiga qarab maxsus shart-sharoitlar talab etishi (pech turi, eritish harorati), ularning har biri mehnat xavfsizligi me'yorlariga ko'ra o'ziga xos texnik talablarga asoslanishi aniqlandi. Ushbu muhitda harakatlanuvchi mashinalar va mexanizmlar, tsex ichidagi haroratning o'zgarishi, portlash xavfi, metall maydalagichdan zarrachalarning sachrashi, ish zonasidagi shovqin va tebranishlar kabi jismoniy omillar mavjud bo'lib, ular ishchilarning umumiy sog'lig'iga, jismoniy va psixofiziologik holatiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Metallurgiya ishlab chiqarishida ishchilarga zararli omillarning butun majmuasi ta'sir qiladi, ularning har biri me'yoriy qiymatlardan oshmasligi mumkin, ammo birgalikda salbiy ta'sirga olib keladi. Kon-metallurgiya sohasidagi eng HZICHo kasblar va ish joylari kesimida tahlil qilinib, maxsus kiyim va shaxsiy himoya vositalariga talablar tizimi shakllantirildi (1- rasm).

Quyish tsexida yana bir ahamiyatli xavfli omil – suyuq metall zarrachalari va chang bo'lib, uning tarkibida yuqori miqdorda murakkab moddalar mavjud. Bu esa turli kasb kasalliklariga, jumladan, bronxit, silikoz va pnevmokoniozning

paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Ushbu kasallik, havo orqali o'pkaga kiradigan mayda chang zarralari ta'sirida yuzaga keladi va allergik kasalliklar, bronxial astma, yurak-qon tomir tizimi muammolari, ko'z va burun kasalliklari hamda boshqa salomatlikka zarar yetkazuvchi holatlarni keltirib chiqaradi.



2.1-rasm. Texnologik operatsiyalarni bajarishda xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari

Kasbiy kasalliklar tarkibida nafas olish organlari kasalliklari – 36,2%, tebranish kasalligi – 25,8%, tayanch-harakat tizimi kasalliklari – 10,3% va eshitish a'zolari – 12,1% ko'proq uchrashi aniqlandi. Dissertatsiya ishi doirasida 2023-2024 yillarda Navoiy KMK va Toshkent truba zavodining quyish tsexining 120 nafar ishchilari o'rtasida maxsus kiyim sifat ko'rsatkichlarini shakllantirish maqsadida ijtimoiy so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijalari bo'yicha mavjud maxsus kiyimlardagi kamchiliklar va talab va ehtiyojlari aniqlandi. Ishchilarga taqdim etilayotgan maxsus kiyimlar sifati baholanganida, respondentlarning 15% qoniqarli, 40% qisman qoniqarli, 45% esa qoniqarsiz deb topgan. Ko'pchilik ishchilar maxsus kiyimning yetarli darajada qulay emasligi, uning konstruktiv yechimiga o'zgartirish kiritish, uning ergonomik qulayligini ta'minlovchi maxsus moslamalar bilan boyitish, HZICH₂O dan himoya vazifasini kuchaytirish, taklif etilayotgan maxsus kiyim materialini og'ir va qo'polli bilan bog'liq muammolar borligini ta'kidlagan. Xavfsizlik, qulaylik va chidamlilik – ishchilarning ish unumdorligi va maxsus kiyimdan qoniqishini shakllantiruvchi asosiy omillar bo'lib, maxsus kiyim loyihalashda hisobga olinishi lozim.

Navoiy kon-metallurgiya korxonasi mehnat sharoiti va xavfli va zararli ishlab chiqarish omillarini tadqiq qilish doirasida amaldagi maxsus kiyim sifati va ekspluatatsion ko'rsatkichlarini aniqlashga bag'ishlangan tadqiqotlar o'tkazildi. Tadqiqotlar ishchilarga taqdim etilayotgan va yaroqsiz holga kelgan kiyimlarni bevosita organoleptik baholashga va yemirilish

topografiyasini o'rganishga asoslangan. Tadqiqot uchun nazorat namuna sifatida bir necha ishchiga tegishli bir mavsumda ishlatilgan 10 ta yaroqsiz holga kostyumlar tanlanib, ularning ekspertizasi nuqsonlar kattaligini o'lchash, bevosita ko'z bilan tekshirish, fototahlil, yirtilgan va ifloslangan joylarini aniqlash yo'li bilan amalga oshirildi. Tadqiqot davomida 3 xil toifadagi kostyumlar: brezent kostyum, ip gazlama kostyum va brezent qo'lqop tekshirildi. Ular o'zaro vazifasi, materiali, kiyish muddati va tashqi ko'rinishi bilan farq qiladi.

Tadqiqot uchun amaldagi maxsus kiyim detallari yemirilish darajasini aniqlash metodikasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra yemirilish (iznos) darajasi 3 ta toifaga bo'lib o'rganildi:

-ishqalanish (%): mato yuzasida mexanik ta'sirlar natijasida yuzaga kelgan yeyilish, to'qimalar yuzining yirtilish darajasi;

ifloslanish (%): mato tuzilmasida kir va texnologik chiqindilarning yig'ilishi, yuvish bilan ketmaydigan dog'lar;

mexanik shikastlanish (%): yoriq, teshik, mato talkonining buzilishi va boshqa vizual ko'riladigan shikastlar.

Har bir namunadagi yirtilgan, ifloslangan va yemirilgan uchastkalar smli tasma yordamida o'lchanib, nuqsonli uchastkalar o'lchashga qulay bo'lishi uchun bo'r bilan chegaralanib qo'yildi. Shikastlangan zonalarning umumiy maydonga nisbatan foizdagi ulushi hisoblandi; tahlil natijalari usullarini reproduktiv bo'lishi uchun takroriy o'lchovlar o'rtacha qiymatda yoritildi (2-rasm). Yemirilgan va ifloslangan joylar matolari ishqalanish natijasida yupqalashgani yoki chirigani, kiyim yuzasida yirtiqlar va teshiklar borligi aniqlandi. Tahlil va 6 oy muddat ichida kiyilgan ip gazlama kostyumi nuqsonlari 2-rasmda ko'rsatilgan bo'lib, kostyumning eng yemirilgan uchastkalari sifatida shim og' va tizza qismi, old bo'lak, tirsaklar, kiyim barlari, cho'ntak sohalari shim ort bo'lagida bo'ksa qismlarini ko'rsatish mumkin (1-jadval). Bu sohalari albatta ishchining bajaradigan ishiga qarab o'zgarishi mumkin. 3-rasmda metall eritish va quyish tsexi ishchilari maxsus kiyim sirtining eng zaif va himoyalaniishi zarur (maxsus kiyimining yemirilish topografiyasi) zonalari tasvirlangan.






2 -rasm. 6 oy muddat ichida kiyilgan maxsus kiyim

Maxsus kiyimning ishqalanish va ifloslanishga moyil bo'lgan joylar

№	Maxsus kiyim qismlari	Ishqalanish (%)	Ifloslanish (%)	Mexanik shikastlanish (%)
1	Shim og' qismi	37,6	20,1	42,3
2	Shimning tizza qismi	25,8	39,1	35,1
3	Cho'ntak qismi	32,7	46,2	21,1
4	Tirsaklar	43,5	43,4	13,1
5	Shimning ort qismi	44,7	49,3	6



-  - yuqori darajadagi yemirilish
-  - o'rtacha darajadagi yemirilish
-  - past darajadagi yemirilish

3-rasm. Metall eritish va quyish tsexi ishchilari maxsus kiyimining yemirilish topografiyasi

Tadqiqot jarayonida amaldagi maxsus kiyimlar ishchilarga zarur himoyani ta'minlamasligi aniqlandi. Mehnat sharoitlari va maxsus kiyimning yeyilish topografiyasini o'rganish jarayonida aniqlandiki, metallurgiya zavodlarida issiqlik oqimining sirt bo'yicha zichligi GOST 12.4.221-2002 standartda belgilangan sirt zichligidan to'rt barobar yuqori. Shu munosabat bilan, metallurg tomonidan maxsus kiyim ekspluatatsiya qilingandan so'ng, himoya qiluvchi kostyum uni qayta ishlatishga qisman yaroqsiz holga keladi. Ikkinchidan, korxonada har bir ishchiga berilgan me'yordagi brezent kostyum harakat uchun noqulay, qo'pol, og'ir bo'lgani uchun u kam kiyiladi; aksariyat ishchilar o'zlari chetda oddiy diagonal matodan kiyim xarid qilib kiyadilar. Lekin bu kostyumlar metallurglarning ish sharoitlariga mos emasligi tufayli ko'pga bormaydi va 3–4 oy ichida yaroqsiz holatga keladi. Natijada, GOST 12.4.280–2014 va GOST 12.4.250–2019 talablariga javob bermasligi va GOST 12.4.103–83 talablariga muvofiq, maxsus kiyim xizmat muddati ish sharoitiga qarab ko'pi bilan 6–12 o'rniga 3–4 oy ichida yaroqsiz holatga kelishi aniqlandi.

Metallurglar uchun maxsus kiyim materiali tanlovi tsexlardagi yuqori harorat sharoitida matoning fizik-mexanik xossalarini saqlab qolishi, erigan metall zarrachalari sachragan holatda ham o'z xossalarini yo'qotmasligini, materiallarning termik va friksion (ishqalanishga qarshi) xossalari, hamda gigiyenik xossalarini nazarda tutuvchi tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda amalga oshirildi. Maxsus himoyaviy kiyim tikishda turli xomashyo tarkibiga ega to'qimalardan foydalaniladi (2-jadval).

2-jadval

Maxsus kiyimbop gazlamalarning fizik-mexanik va gigiyenik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar nomi		Maxsus kiyimbop gazlama			
		1-variant	2- variant	3- variant	4- variant
Gazlamalarr nomi va to'qilish tarkibi		PE/paxta	PE/paxta	PE/paxta	PE/paxta
Tola tarkibi	tanda %	65/35	81,7/18,3	18,0/82,0	14,8/85,2
	arqoq %	65/35	81,7/18,3	18,0/82,0	14,8/85,2
O'rilishi		Sarja	Sarja	Sarja	Sarja
Mato eni, sm		151,9	150,8	152,0	150,5
Yuza zichligi, g/m ²		246,8	238,3	221,6	242,4
10 sm da mato zichligi (tanda/arqoq)		38 / 30	36 / 28	34 / 27	35 / 29

Tanlab olingan to'qima matolar sifat ko'rsatkichlari qiymatlarini aniqlash laboratoriya sinovlari amalga oshirildi (3-jadval).

3-jadval

Maxsus kiyimbop gazlamalarning fizik-mexanik va gigiyenik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar nomi		Maxsus kiyimbop gazlama			
		1-variant	2- variant	3- variant	4- variant
Ishqalanishga chidamliligi, tsikl		21000	23000	26000	30000
Havo o'tkazuvchanlik, dm ³ /m ² ·s		85,8	99,2	135,5	137,6
Gigroskopiklik, %		3,8	3,5	3,3	3,1
G'ijimlanmaslik, %	tanda %	71,1	66,6	71,1	59,4
	arqoq %	73,3	68,8	68,8	58,8
Elektrlanish, kV/m		0,216	0,298	0,301	0,315
Uzilish kuchi, N	tanda	929,2	901,6	968,3	974,5
	arqoq	536	514	593	613
Rang mustahkamligi ball	Quruq ishqalanish	4	4	5	4
	Nam ishqalanish	4	4	5	4
Kirishuvchanlik (baholash, 1–5 ball)		3	3,5	4,5	5

Tanlangan matolarning fizik-mexanik va gigiyenik ko'rsatkichlari tahlilidan gazlamaning tuzilishi va uning tola tarkibi maxsus kiyimining havo o'tkazuvchanlik, gigroskopiklik-nam shimish xususiyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Jumladan, poliefir va paxta tolalarining 80/20 nisbatidagi matolarda 65/35 nisbatidagi matolarga nisbatan yuqori havo o'tkazuvchanlik kuzatilgan, bunda havo o'tkazuvchanlikning maksimal qiymati - 137,6 dm³/m²·s -

4-variant mato namunasida qayd etilgan, 1-variantda paxta miqdori yuqori bo'lishiga qaramay, zich to'qilish natijasida havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichi pasayishi aniqlangan. Paxta miqdori yuqori bo'lgan (65/35) matolarda gigroskopiklik darajasi yuqori bo'lib, bu ishchi tana haroratini muvozanatlash va terni so'rib olishda samarali xizmat qiladi.

Tahlil natijalariga ko'ra, paxta va sintetik tolalari aralashmasi mustahkam va ishonchli material yaratishga imkon beradi. Tabiiy tola yaxshi havo almashinuvini ta'minlansa, poliefir tola mustahkamlikni oshiradi va matoning shaklini saqlashga yordam beradi, bu esa ishchilar uchun qulaylikni ta'minlaydi. Shu sababli, tadqiqotda maxsus kiyimlar uchun asosiy mato sifatida poliestер-paxta aralashmasi tanlandi.

Dissertatsiyaning **“Quyish tsexi ishchilarining maxsus kiyimi himoya ko'rsatkichlarini oshirish”** mavzusidagi uchinchi bobi maxsus ish kiyimining ma'lum darajadagi himoya xususiyatlarini oshirish va uning dinamik muvofiqligini ta'minlashga bag'ishlangan.

Kon-metallurgiya kombinati xavfli va zararli omillaridan biri suyuq metall uchqunlarining sachrashidir. Suyuq metall, asosan metallurgiya ishlab chiqarish jarayonlarida - quyish, qoliplash, payvandlash, kesish va qotishma tayyorlash kabi yuqori harorat talab qilinadigan texnologik amallarda yuzaga keladi. Suyuq metallning uchqunlari sachrashi natijasida ishchilar kuyish, jarohatlanish kabi xavflarga duchor bo'lishadi. Shu sababli, ishchilarni himoya qilish maqsadida xavfsizlik talablariga javob beruvchi maxsus kiyimlardan foydalanish zarur.

Maxsus kiyim yuzasi bo'ylab harakatlanayotgan suyuq metall zarrachasining yo'nalishi va traektoriyasini o'zgartirish uchun analitik shart olingan. Bu shart qiyalik burchagi va kiyim qismining egrilik radiusi, zarrachaning massasi va tezligi, hamda ishqalanish koeffitsiyentiga bog'liq bo'ladi.

Suyuq metall zarrachaning chegaraviy o'q bo'ylab harakatlanishidagi kuch ta'siri

$$F = mg(\sin \alpha - f \cos \alpha), H$$

Egri chizikli traektoriya bo'ylab suyuq metall zarrachasi harakatlanishini ta'minlovchi kuchga bog'liq

$$T = f(mg \cos \alpha - mv^2 / \rho)$$

Suyuq metall zarrachasining qiya tekislik bo'ylab harakatlanishi

$$mg(\sin \alpha - f \cos \alpha) < f(mg \cos \alpha - mv^2 / \rho)$$

Berilgan shartda zarrachaning egri chiziq bo'ylab harakati

$$f(mg \cos \alpha - mV^2 / \rho) < mg / (\sin \alpha - f \cos \alpha)$$


Suyuq metallning maxsus old kiyim yuzasida turish vaqti: $\tau = \sqrt{2l/a}, c$

Zarrachaning qiya tekislik bo'yicha siljishidagi tezlanish:

$$a = g(\sin \alpha - f \cos \alpha), m/c^2$$

Suyuq metall zarrachalarining harakati bo'yicha ishlab chiqilgan matematik model quyish sexi ishchilar xavfsizligini ta'minlash va maxsus himoya kiyimlarining konstruktiv tuzilmasini ilmiy asosda loyihalash uchun zarurdir. Natijada suyuq metall zarrachalarining harakatini matematik modellashtirish orqali


maxsus himoya kiyimlarining dizayni, materiali va samaradorligini aniqlash imkonini beradi.



4-rasm. Qiya tekislik va egri chiziqli yo'l bo'ylab suyuq metall zarrasiga ta'sir qiladigan kuchlarning sxemasi

Shuni ta'kidlash kerakki, kiyim inson tanasining 80% qismini qoplaydi va "inson-kiyim-atrof-muhit" tizimini hosil qiladi. Shu bois, maxsus kiyim materiallarini tanlashda inson salomatligi, xavfsizligi, qulayligi, himoya va ekologik jihatdan barqaror bo'lishini ta'minlashi kerak. Bu esa kiyimning samarali ishlashini, uzoq muddatli xizmat qilishini va ishchining xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi.

Materiallarning tahlili davomida amaldagi brezent va ikkilamchi charm (spilok) materiallari o'rganildi. a) rasmda ikkilamchi charm (spilok) hamda b) rasmda brezent materiallarining ko'ndalang kesilgan va mikroskop yordamida tasvirga keltirilgan (5-rasm).



a) Ikkilamchi charm (spilok)

b) Brezent

5-rasm. Mikroskop yordamida ikki xil materialning ko'ndalang kesilgan tasviri

Ushbu rasm natijalariga ko'ra, brezent matosi, paxta va zig'ir tolalarining to'qilishi asosida ishlab chiqariladi, natijada uning yuzasi notekis bo'ladi va suyuq metall zarrachalari bilan to'qnashganda ular erkin dumalay olmaydi, aksincha,





ushlanib qolish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Bu holat esa, metall zarrachalarning kiyim sirtida uzoqroq turishiga olib keladi va ishchining xavfsizligini pasaytiradi.

Bundan farqli o‘laroq, ikkilamchi charm (spilok) materialining sirtida silliqlik xususiyati mavjud bo‘lib, bu material suyuq metall uchqunlari sachraganida xavfli joylarda to‘planmasdan maxsus old kiyim yuzasida erkin dumalab ketadi. Natijada, spilok materialidan tayyorlangan kiyim ishchini yuqori haroratli zarrachalardan samarali himoya qiladi va kiyimning himoya funksiyasini oshiradi. Shuning uchun, maxsus kiyim materiallarining turli xususiyatlarini tahlil qilish, ishchining xavfsizligini ta‘minlash va materiallarning ekologik jihatdan barqarorligini hisobga olish zarur.


Maxsus kiyimni ishlab chiqishda ergonomik talablar muhim o‘rin egallaydi. Maxsus kiyim konstruksiyasi metallurgning harakatlariga mos kelishini ta‘minlashi, ishchi harakatlarini hisobga olishi va ish jarayonida belgilangan vaqt davomida o‘lchamlarining barqarorligini kafolatlashi kerak. Ishda funksional ergonomika va maxsus kiyimlar ishlab chiqish bo‘yicha E.Ya.Surjenko metodologiyasi asos qilib olindi. NKMKning metallni qayta ishlash va quyish tsexida ish smenasi davomida metallurglarning harakati o‘rganib tahlil qilindi. Ishchilarning harakati ish vaqti boshlanganidan to‘yakunlangungacha 9 soat ichida videokuzatuv orqali suratga tushirildi.

4-jadval

NKMK quyish tsexi ishchilarining harakatlari dinamikasi tahlili

Holat raqami	Holat	Bajarilayotgan ish turi	Tana harakati tavsifi	Razmer o‘lchamlari
1		Yerda turgan buyumlar va jismlarni ko‘tarish	Tana 90° burchak ostida egilgan, qo‘llar pastga tushirilgan	Шс, Дтс, Впк, Дтп
2		Podani puflab tozalash va letkani tozalash	Tana 30° burchak ostida egilgan, qo‘llar tirsaklardan 90° burchakda bukilgan, oyoqlar tizzadan bukilgan	Шс, Дтс, Шп, Впк, Шг
3		Tik turgan holda, qo‘llar yuqoriga ko‘tarilgan, respiratorni taqish	Qo‘llar tirsaklardan bukilgan	Шс, Дтс, Впк, Дтп
4		Bitta oyoqni ko‘tarish, tana tik holatda. Mehnat qurollari va uskunalar ustidan oshib o‘tish	Oyoqni ko‘tarish va tizzadan 120° gacha bukish	Дтс, Шс, Всид., Об, Ок, Дтк, Впк
5		Pechdagi teshik orqali «фушировка» qilish	Tana 30° burchak ostida egilgan, qo‘llar tirsaklardan bukilgan	Шс, Дтс, Шп, Впк, Шг
6		Letkani tozalash	Tana 90° burchak ostida egilgan, qo‘llar tirsaklardan bukilgan	Шс, Дтс, Впк, Дтп

Umumiy harakatlar ichida eng ko‘pi - qo‘llarning oldinga, yuqoriga harakati, tirsaklarni bukib oldinga va orqaga harakati, tik turgan holat yoki cho‘kkalab o‘tirgan holatlar ko‘p uchraydi (6-rasm).



6-rasm. Harakatlar dinamikasining tahlili

4-jadvaldagi barcha o‘lchamlar bo‘yicha kiyimga zarur erkinlik ta’minlanishi, ya’ni kurtka va shim konstruksiyasini ishlab chiqishda konstruktiv uchastkalarni dinamik o‘sishlari hisobga olinishi zarurati aniqlandi. Dinamik qo‘shimchalarni aniqlash uchun ko‘rsatilgan o‘lchamlar bo‘yicha statik va dinamik holatdagi antropometrik o‘lchovlari o‘tkazildi. Dastlabki tanlanma natijalarini qayta ishlash asosida ishonchli tanlanma hajmi haqida ma’lumotlar olindi. Avvaliga, 20 yoshdan 45 yoshgacha bo‘lgan, ma’lum jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lgan 15 nafar erkak, keyinchalik 100 kishidan iborat tanlanma dinamik qo‘shimchalarni aniqlash bo‘yicha tadqiqotlarga jalb qilindi. To‘plangan ma’lumotlar statistik tahlildan o‘tkazildi. Olingan natijalar asosida aniqlandi: 100 kishidan iborat tanlanma dinamik qo‘shimchalar qiymatlarini 0,95 ehtimollik darajasida aniqlash uchun zarur bo‘lgan aniqlik darajasiga javob beruvchi ishonchli tanlanma hisoblanadi.

Tavsiflangan o‘lchovlar ishonchli tanlanma vakillari uchun bajarilgan. Olingan dinamik qo‘shimcha qiymatlari 5-jadvalda keltirilgan. Ushbu ma’lumotlarga ko‘ra harakat vaqtida tananing orqa-old uzunligi, orqa kenglik eng katta dinamik o‘sishga ega.

5-jadval

Metallurg ishchisining xos harakatlari davomida o‘lchov belgilarining dinamik qo‘shimchalari

O‘lchov nomi	Dinamik qo‘shimchanning o‘rtacha qiymati, sm	O‘zgaruvchanlik diapazoni, R, cm	O‘rtacha kvadratik og‘ish, S, cm
Дтс	12,3	1,2	0,394
Шс	20,5	0,8	0,264
Шг	9,9	0,9	0,297
В сид.	-2,87	1,4	0,462
Впк	15,6	1,4	0,462
Ок	4,0	0,8	0,354
Дзап.	4,53	1,8	0,594

Dinamik qo‘shimchaning aniqlangan qiymatlari razmer o‘lchamlariga berilgan bazaviy qiymatlari bilan taqqoslash asosida baholandi (6-jadval).

6-jadval

Metallurglar uchun inson tanasining o‘lchov belgilariga oid dinamik qo‘shimchalarni solishtirma tavsifi

Harakat xarakteristikasi	Tana o‘lchovi	Dinamik qo‘shimcha, sm		
		Bazaviy (mavjud)	Hisoblangan	Og‘ish
Tananing oldinga egilishi	Шс	15,8	20,5	+4,7
	Дтс	8,6	12,3	+3,7
	Впк	8,1	15,6	+7,5
Qo‘llar tushirilgan holatda kuraklar maksimal yaqinlashtirilgan	Шг	8,6	9,9	+0,3
Oyoq son va tizza bo‘g‘imlarida bukilgan	Всид	5,2	+2,87	+2,33
	Ок	3,3	4,0	+0,7

6-jadvaldagi natijalardan foydalanib maxsus kiyimning konstruksiyasi va kiyim maketlari tayyorlandi va real ishlab chiqarish sharoitlarida sinovdan o‘tkazildi. Olingan sinov natijalariga ko‘ra bazaviy konstruksiyalarga o‘zgarishlar kiritildi: eng o‘mizini 3 sm ga chuqurlashtirish, elka chiziqini 2 sm ga uzaytirish, eng qiyamasi balandligini 2 sm ga pasaytirish va 3 sm ga kengaytirish tavsiya etildi. Shimning old va orqa bo‘laklaridagi og‘ qismi 3 sm ga, shuningdek, odim qirqimi uzaytirildi. Shu asosda harakat erkinligi ta‘minlandi.

